

## O'ZBEKISTONDA A-KAPPELLA: AN'ANALAR VA ZAMONAVIYLIK

Jumaev Shavkat Normurodovich

O'zbekiston davlat koservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada san'ati instituti estrada xonandaligi kafedrasida vokal ansambli o'qituvchisi.

[zaminvokal@mail.ru](mailto:zaminvokal@mail.ru) +90-998-348-81-22.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11520905>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda yagona hisoblangan a-kapella ansambli jamoasi va uning ijodi, qayta ishlangan va ijro uchun moslashtirilgan xalq qo'shiqlari, mualliflik asarlari va ustozlarning durдона asarlari ijrosi, ularning murakkabliklari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Jo'rsiz ijro, ansambl kuylash tushunchasi, vokal- texnik kuylash imkoniyatlari, talaffuz qoidalari, so'zlarning ahamiyati, usullar va ulardan foydalanish, bitboks tushunchasi, garmonik va melodik hamoxanglik, xalq qo'shiqlari ijrosi, mualliflik ijodi.

### A CAPPELLA IN UZBEKISTAN: TRADITIONS AND MODERNITY

**Abstract.** This article describes a unique acappella ensemble in our country and its foundation and creation, arranged for the performance of folk songs, original works and masterpieces of masters, as well as their subtleties...

**Key words:** Unaccompanied performance, the concept of ensemble singing, the possibilities of vocal-technical singing, pronunciation rules, the meaning of words, rhythms and their usage, the concept of beatboxing, harmonic and melodic consonance, performances of folk songs and original creativity

### А КАПЕЛЛА В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ

**Аннотация.** В данной статье описывается об уникальном в нашей стране ансамбле а капелла и его создании, переложенные и обработанные для исполнения народных песен, авторские произведения и шедевры мастеров, а также об их тонкостях.

**Ключевые слова:** Исполнение безсопровождение, понятие ансамблевого пения, возможности вокально-технического пения, правила произношения, значение слов, ритмы и их использование, понятие битбокса, гармоническая и мелодическая созвучия, исполнение народной песни, авторское творчество.

«Musiqqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga xurmati baland bo'ladi».

**Sh.M. Mirziyoev**

Zamin a-kapella ansambli guruhining tashkil topganiga o'n uch yil bo'libdiki, jamoa shu kungacha tinimsiz ijodiy izlanishda. O'zbekistonda yagona hisoblangan mazkur jamoada oltita ijrochi faoliyat yuritib kelmoqda. Guruhni tashkil topishiga nima turtki bo'lgan degan savolga guruh rahbari Sh.Jumaev shunday javob beradi- «Ovoz eng mukammal va betakror cholg'u sozi, inson ovozi imkoniyatlari orqali mo'jizalar yaratish mumkin».

“SH.Jumayev rahbarligidagi erkak ijrochilardan iborat «Zamin» a - kapella'si ijodi e'tiborga loyiq. O'zbek xalq qo'shiqlarini zamonaviy jaz ritmlarida ijro etayotgan ushbu

ansambl o'zbek etno-jazini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Guruhning konsert dasturlari bilan chiqishlari ijrochilarda muayyan sahna tajribasini, yuksak ijro va mahoratga erishish istagini shakllantirdi. <sup>1</sup> Etno-jaz – ingliz. ethno, exotic jazz – jahon jazi nomi bilan mashhur bo'lib, 1950-60-yillarda yaratilgan jaz va jahon musiqasining kichik janri bo'lib, an'anaviy jaz va sharqona musiqiy elementlarning uyg'unligi bilan keng ajralib turadi.

Insonning ichki kechinmalari, his-xayajoni, g'am-g'ussasiyu xursandchiligi aks etgan shoir she'ri musiqa bilan xamohang tarzda ijrochi tomonidan uning shirali ovozi mohirona yangrashi albatta xar bir tinglovchi qalbini junbushga keltirmay qolmaydi. Ana shunday ijroni bir emas bir nechta ovozlar jo'rligida yangrashi insonga yanada zavq-shavq bag'ishlaydi va uning xayratini oshiradi. Bajarilayotgan ish qanchalik murakkab bo'lsa uning mahsuli shunchalar mukammal bo'ladi. Turli xil ovoz tembrlariga ega bo'lgan kuylovchilarning guruh bo'lib, ahillikda uzoq muddatli ijod qilishlari ham tahsinga loyiq. «Bizni ruhlantirib kelayotgan narsa - bu muhlislarning fikrlari» - deydi guruhning yana bir a'zosi. Albatta xar bir san'atkor ilhom bag'ishlovchi hissiyot uni qadrllovchi va qo'llab-quvvatlovchi, unga ilhom bag'ishlovchi muhlislarining borligi.

Guruh tarkibi tenor, bariton, bas va bitbokserdan iborat bo'lib, xar bir ovoz partiyasi o'ziga xosligi va muhimligi bilan bir-biridan ajralib turadi.



Asar ijrosida ovozlar alohida melodik qatorlarga ega holda, garmonik tuzilmalarni gavdalantiradi. Guruh repertuarlarini kuzatar ekanmiz, undagi aranjirovkalar takrorlanmas ohanglar tuzilmasidan iboratligiga guvoh bo'lamiz. Tanlangan asarlarni aranjirovka qilish va ularni qayta ishlab ijroga moslashtirish uchun guruh raxbari Sh.Jumaeva mas'ul. Uning yillar davomida olgan bilim va malakalari yangi ishlanmalarni yaratishda muhim manba xisoblanadi.

Jamoa tashkil qilingan paytdagi ilk asar namunasi bilan oxirgi qilingan ishlarni solishtirib ham bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Kuzatishlar, tinglash, fikr va malaka almashishlar orqali

<sup>1</sup> SEDIX T.T. "O'ZBEKISTON JAZI: GENEZISI, TADRIJIYOTI, O'ZIGA XOSLIGI" T-2023 B.16

yanada takomillashgan asarlarning tele ekranlar, radio, internet tarmoqlari va turli kanallar orqali eshittirilishi ijobiy fikr mulohazalarga sabab bo'lmoqda. Yangicha qarash, an'anaviy yondoshishga o'zgartirish kiritishdan cho'chimasdan, tanqidlarga uchrashdan xayiqmasdan o'z yo'nalishida ijod qilib kelayotgan "Zamin a-kapella" guruhi xozirgi kunda o'z mavqei va xurmatiga ega.

Bugungi kungacha a-kapella jamoasi tarkibi bir necha marta yangilangan bo'lishiga qaramasdan ularning ijro mahoratlari hammani lol qoldirishda davom etib kelmoqda.

Qayta ishlangan xar bir asarni nazariy jihatdan olib qaralganda aytishimiz mumkinki, u aniq bir qoida va tuzilmalarga bo'ysunmagan. Asarning kuychanligi, xarakteri va ijro yo'liga qarab unga mos ravishda akkordlar va usullar tanlanadi. Bunda asosiy kuylanuvchi mavzu ohanggi muhim rol o'ynaydi. Gomofon-garmonik, garmonik ovoz osti va imitatsiyali ko'p ovozlarda intonasiya sofligi alohida o'rin tutsa, matnning to'g'ri talaffuz qilinishi, bo'g'inlarning vokal kuylashga xos ko'chishlari musiqiy iboraning ifodaviyligini oshirishga yordam beradi. Jamoa repertuaridagi asarlarlarning aksariyati gomofon-garmonik ko'rinishdagi akkordli ovozlardan iborat bo'lib, musiqiy xissalardagi so'zlar va bo'g'inlar bir xil o'lchamdagi nota va bo'g'inlarga ajratilgan. Ishlash jarayonida ko'p e'tibor talab qilinadigan jihat ham asosan toza kuylanishi zarur bo'lgan notalar xamohangligida. Popurri sifatida turli asarlardan tuzilgan yahlit ijroda tonallik, ritm va tempning o'zgarishi e'tibor va xushyorlikni talab etadi. Asarga xar bir ijrochining individual yondoshishini hisobga olgan holda terma asarlarni ularning xarakteri va imkoniyatidan kelib chiqib taqsimlanadi. Jamoa tarkibi akademik hamda estrada xonandalaridan iboratligi ko'p imoniyatlar eshigini ochadi.

Ovoz orqali usullarga taqlid korinishdagi ijro vokal texnik jixatdan bir qancha murakkablik tug'diradi. Nafas, talaffuz, sof intonatsiya va ko'p ovozlarda kuylash va eshitish ko'nikmalariga ega ravishda asar badiiyligini yo'kotmagan holda mukammal darajada ko'rsatib bera olish uchun guruh albatta professional ijrochilarga ega bo'lmog'i darkor. Ansambl xosil qilishdagi turli murakkabliklar va muammoli jihatlar mashg'ulot jarayonlarida oz yechimi topib kelmoqda. Nazariy bilimlarga tayangan holda tuzilgan akkordlarning oxangdoshligi ijroda o'z aniqligiga ega buladi.

Ijroda nafaqat ohanglar, balki usullar ham katta ahamiyatga ega. Asarlarga ritm tanlashda Sh.Jumaev djaz yo'nalishiga xos bo'lgan ijro usullarini qo'llagan holda, o'zbek xalq va milliy estrada qo'shiqlarini o'zgacha talqinda yangrashiga sababchi bo'lmokda. Jo'rsiz ansambl ko'rinishdagi ashulachilar guruhiga BEATBOKS<sup>2</sup> yo'nalishini kiritishning o'zi ijodda keskin burilish xosil qilgan. Zamonaviy beatboksga o'xshash ijro texnikasi XIX-asrdan boshlab Amerikaning ko'plab musiqiy janrlarida, masalan, ilk Amerika folklori, diniy qo'shiqlar, blyuz, regtaym, vodvil, hokum (hazilli blyuz) kabilarda namoyish etilgan. Bunga Apalachi Ifing texnikasi va Sonni Boy Uilyamson II tomonidan "Bye bye bird" blyuz kompozitsiyasi misol bo'la oladi.

Beatboks Afrika an'anaviy musiqasidan kelib chiqqan, bu yerda ijrochilar o'z tanalarini zarbli cholg'u asboblari (qarsak urish, tepish) sifatida ishlatadilar va baland ovozda nafas olish va chiqarish orqali lablari bilan tovush chiqaradilar, bu zamonaviy bitboksingda qo'llaniladigan

---

<sup>2</sup> Beatboxing - bu og'iz, lablar, til, tomoq, ovoz va ba'zan qo'llar yordamida kompozitsiya yaratish usullarini o'z ichiga olgan musiqa janri

usullardan biri. Bitbokser, ya'ni usular ijrochisi jamoaning muhim a'zolaridan biri hisoblanadi. U turli murakkablikdagi usullarni asarga mos ravishda qo'llay oladi. Asarning tempi va xarakteridan kelib chiqib usul tanlash Bitbokserning fantaziyasiga bog'lik bo'lib, u erkin badixago'ylik (improvizatsiya)dan keng foydalanish imkonini beradi. Bitbokser - jamoaning yuragi desam mubolag'a bo'lmaydi. Asar tempini va ritmini bir me'yorda ushlab, asarni boyitish ya'ni unga bezak berish va ta'sirchanligini oshirishda bitboksning o'rnini beqiyos.

Bizning mintaqamizda bitbokserlar tayyorlaydigan mahsus o'quv maskanlari yoki ustoz shogird an'analari ko'rinishida bilim olish urfga kirmagan bo'lsada, texnika asri yoshlari internet tarmoqlari orqali bu yo'nalishga oid qo'llanma va amaliy bilimlarni mustaqil ravishda o'rganib kelmoqdalar.

Og'izda usul berish bilan bir qatorda ovoz orqali cholg'u sozlarini tasvirlab berish uchun maxsus tayyorgarlik zarur bo'lmaydi. Bunda faqat asarni qayta ishlash paytida bo'g'inlarning to'g'ri tanlanishi asosiy jihat xisoblanadi. Portlovchi va kuylanuvchi bo'g'inlar tuzilmasini qo'llashda Sh.Jumaev yevropa zamonaviy musiqa janrlariga tayangan holda o'z ritmik bog'inlarini yaratdi. Yuqori pardalarda yoki juda past registrdagi kuylashda ovozlarning yangrashida to'g'ri tanlangan bo'g'inlar juda katta ahamiyatga ega. Ochiq va yopiq bo'g'inlardan foydalanishda asarning tempi va ritmiga katta e'tibor beriladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimanki, guruh a'zolari ijro paytida torli, damli, zarbli musiqa asboblari tovushini ovoz orqali aynan musiqa asbobi tovushiga taqlid ko'rinishida aynan o'sha pardalarda ijro etib bera olish imkoniyatiga ham ega.

Xar qanday kuy-qo'shiqni faqat ovozda, ya'ni ovoz imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda maromiga yetkazib, professional darajada ijro etish orqali o'z muxlislariga ega bo'lgan «Zamin a-kapella» guruhi repertuaridan nafaqat o'zbek milliy, xalq, estrada kuy-qo'shiqlari, balki jahon estradasining mashhur asarlari va xalq qo'shiqlari o'rin egallagan. Xar bir millatning o'z ijro uslubi - yo'nalishini o'zlashtirishni o'zi murakkab jarayon hisoblansa, uni tinglovchiga yetkazib bera olish yana bir o'ziga xos murakkablikka ega hisoblanadi. Guruh a'zolari nafaqat vokal ijro texnikasi ko'nikmasini, balki turli millat va elatlar tili, ijro yo'li, ularning o'ziga hos nolasi kabi bilimlarini o'zlashtirishga jiddiy yondoshadilar.

Asarlarni tanlashda va ularni ovozlarga bo'lishda, hamda asar mohiyatidan kelib chiqib unga xos bo'lgan garmonik va melodik xamohanglikni qo'llashda chuqur bilim va malaka talab qilinadi. Bunda nafaqat nazariy va amaliy bilimlar jamlanmasi, balki yuqori ijroviy ko'nikma talab etiladi. Guruh raxbari Sh.Jumaev ana shunday ko'p qirrali ijodkor va ijrochi va shu bilan birga noyob iste'dod egasi - mutlaq musiqiy eshitish qobiliyatiga ega inson hisoblanadi.

Sh.Jumaev tomonidan qayta ishlangan asarlarda noan'anaviy ohangdoshlik va noodatiy ijro uslublarni uchratishimiz mumkin. Bu ayniqsa qayta ishlangan va moslashtirilgan o'zbek xalq qo'shiqlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Undagi takrorlanmas garmonik ko'p ovozlik ijrosi tinglovchining ko'z oldida bir vaqtning o'zida ham tarixni ham zamonaviylikni gavdalandiradi.

Xar bir ovoz o'z diapazoni doirasida garmonik, ritmik, melodik ansambllarni o'zida jam etib, noyob san'at asarini kashf etadi.

Ko'plab musiqa janrlari kabi a-kapella yo'nalishining mamlakatimizda rivojlanishi, yangi shakldagi ijrolarning yaratilishi va ommaga targ'ib qilinishi, professional jamoalarning borligi va ularning faoliyati bizning ulkan yutug'imizdir. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda,

ularning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlari va iste'dodini yuzaga chiqarishda olib borilayotgan islohotlarni yokqagan holda shuni aytishim mumkinki, qaysi soha qaysi yo'nalish bo'lmasin yangilik kilishdan va ijoddan xech qachon to'xtamaslik lozim.

Inson ovozi naqadar ko'p imkoniyatlarga ega ekanligini "Zamin a-kapella" guruhi ijrosidagi asarlarni tinglab guvoh bo'lishimiz mumkin.

Repertuarlar:

"Hoh inon, hoh inonma"

"Majnuntol"

"Gazli"

"Yig'larman"

O'zbek xalq qo'shiqlariga popurri

"Eng gullagan yoshlik chog'imda",

O. Muxammadzohid ijro dasturidan "Derlar"

O'zbek xalq qo'shig'i "Hay yor-yor yoringman"

"Topolya"

Valeriy Meladze ijro dasturidan "Inostranets"

Filipp Kirkorov "Sneg"

Rus xalq qo'shig'i "Devka po sadu xodila"

Oleg Anafrev "Mig"

Frank Senatra "I love you baby"

LYUBE "КОНЬ"

Nathan Evans "Wellerman"

Put your hands my shoulder

Louise Armstrong "Blue berry hill"

Jon Lennon Beatles "Imagine"

Elvis Presli repertuaridan popurri,

"Baxtliman" mualliflik asari

Ed-Sheran ijro dasturidan "Perfect"

E. Presley ijro dasturidan "Only you"

B. King ijro dasturidan "Stand by me"

Jack R. Charlees ijro dasturidan "Hit the road"

N. Noskov ijro dasturidan "Eto zdorova"

#### REFERENCES

1. R.Islamova "Vokalniy ansambl" T-2008
2. V.P.Malishava "Vokalniy ansambl v klasse estradnogo peniya" Arxangelsk-2022